

Qabul qilindi: 25.03.2025

Chop etildi: 30.04.2025

UDK: 93/94

AMUDARYONING QADIMGI O‘ZANLARI VA ULARNING XORAZM VOHASINING GEOSIYOSIY VA IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

*Matyaqubova Nozima Maksatbayevna, Urganch davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi*

ANCIENT SETTLERS OF THE AMU DARYA AND THEIR ROLE IN THE GEOSOCIAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE KHOREZM OASIS

*Matyaqubova Nozima Maksatbayevna, teacher of the Department of
History, Urgench State University*

ДРЕВНИЕ РУСЛА АМУДАРЬИ И ИХ РОЛЬ В ГЕОПОЛИТИЧЕСКОМ И ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

*Матякубова Нозима Максатбаевна, преподаватель кафедры
истории Ургенчского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0006-4050-9532>

e-mail:
matyaqubovtohirjon4717

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amudaryoning qadimgi o‘zanlari – Oqchadaryo va Sariqamishbo‘yi o‘zanlarining shakllanishi, ularning Xorazm vohasining geosiyosiy va iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Daryoning suv oqimining o‘zgarishi, qadimgi sug‘orish tizimlari, ibtidoiy jamiyatlarning joylashuvi va neolit hamda antik davrlardagi dehqonchilik madaniyati yoritilgan. Shuningdek, Uzbo‘y orqali Amudaryoning Kaspiy dengizi bilan bog‘lanishi, hududdagi cho‘llanish jarayonlari va qadimgi transport yo‘llari haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, Oqchadaryo, Sariqamishbo‘yi, Uzbo‘y, Xorazm vohasi, sug‘orish tizimi, geosiyosiy rivojlanish, iqtisodiyot, neolit, antik davr, dehqonchilik, arxeologiya.

Abstract: This article examines the formation of the ancient channels of the Amu Darya — the Okchadarya and Sarikamish channels — and their role in the geopolitical and economic development of the Khorezm oasis. It highlights the changes in the river’s flow, ancient irrigation systems, the settlement patterns of primitive societies, and the agricultural culture during the Neolithic and Classical periods. The article also presents scientifically grounded information on the Amu Darya’s connection to the Caspian Sea through the Uzboy, the processes of desertification in the region, and ancient transportation routes.

Key words: Amudaryo, Oqchadaryo, Sariqamishbo‘yi, Uzbo‘y, Xorezm, irrigation system, geopolitical development, economy, neolithic, ancient period, agricultural, archaeology.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование древних русел Амударьи – Окчадарьи и Сарыкамышского русла, а также их роль в геополитическом и экономическом развитии Хорезмского оазиса. Анализируются изменения водного потока, развитие древних ирригационных систем, расселение первобытных обществ и аграрная культура в неолите и античности. Также приведены научные данные о соединении Амударьи с Каспийским морем через Узбой, процессах опустынивания региона и функционировании древних транспортных путей.

Ключевые слова: Амударья, Окчадарья, Сарыкамышское русло, Узбой, Хорезмский оазис, ирригационная система, геополитическое развитие, экономика, неолит, античность, земледелие, археология.

KIRISH. Amudaryo Markaziy Osiyodagi eng muhim daryolardan biri bo‘lib, uning qadimgi o‘zanlari Oqchadaryo va Sariqamishbo‘yi Xorazm

vohasining geosiyosiy va iqtisodiy rivojlanishida beqiyos rol o‘ynagan. Ushbu hududlar qadimdan insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi,

dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi va transport yo'llarining barpo etilishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Daryoning o'z yo'nalishini o'zgartirib turishi natijasida sug'orish tizimlari, ibtidoiy va antik jamiyatlarning joylashuvi hamda iqtisodiy faoliyat shakllari doimiy ravishda o'zgarib borgan. Mazkur maqolada aynan shu jarayonlar, Amudaryoning qadimgi o'zanlari va ularning Xorazm vohasi tarixidagi strategik ahamiyati ilmiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR

TAHLILI.

Amudaryoning qadimgi o'zanlari va ular asosida shakllangan madaniyatlarni o'rganishda bir qator yirik olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. S.P.Tolstovning "По древним дельтам Окса и Яксарты" asari daryo deltalarining shakllanishi va inson faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni yoritadi. M.A.Itina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar janubiy Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi hududlarida bronza davri madaniyatlarini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, Tozabog'yob va Suvyorgan madaniyatlari haqida muhim ma'lumotlar beradi.

B.V.Andrianovning qadimgi sug'orish tizimlariga oid ishlari Xorazm vohasida dehqonchilik asoslarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini yoritib beradi. Shuningdek, V.N.Yagodinaning Xorazmda ilk davlatchilikning shakllanishi haqidagi izlanishlari, X.Yu.Yusupovning bronza davri manzilgohlari bo'yicha ishlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu manbalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy ilmiy poydevor hisoblanadi.

METODOLOGIK ASOSLAR. Tadqiqotda tarixiy-geografik va arxeologik yondashuvlarga tayangan holda kompleks metodlar qo'llanildi. Asosiy e'tibor arxeologik qazishmalar, tarixiy manbalar tahlili, geografik va paleogeografik usullar orqali qadimgi o'zanlar, sug'orish tizimlari va madaniy qatlamlarni o'rganishga qaratildi. Shuningdek, stratigrafik uslub va nisbiy xronologiya asosida arxeologik topilmalar davri aniqlashtirildi. Qo'llanilgan metodlarning uyg'unligi Amudaryoning qadimgi o'zanlari va ularning Xorazm vohasining geosiyosiy hamda iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini kompleks va ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL. Oqchadaryo Amudaryoning dastlab shakllangan o'zani hisoblanadi. U ilk xvalin

(yuqori to'rtlamchi) davridan shakllana boshlangan[7,C.17]. Oqchadaryo o'zani hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtkul shahri yaqinidan boshlanib, shimolga tomon yo'nalgan va uchburchaksimon havzani hosil qilgan. O'zan g'arb tomonda Amudaryo, Sulton Uveys tog'i, sharqda Qizilqum barxanlari bilan chegaralangan. Oqchadaryo o'zani shimoliy va janubiy havzalarga ajratilgan. Amudaryoning Oqchadaryoni suv bilan ta'minlash darajasi turlicha bo'lgan. Bu uning atrofida yashagan ibtidoiy qabilalar va aholining turmush tarziga ta'sir ko'rsatgan. Muzlik davrining oxirlarida Oqchadaryo suvi kamaygan. Mil.avv. IV–III ming yilliklarda, ya'ni neolit davrining so'nggi bosqichida janubiy Oqchadaryo havzasida suv ko'paygan va bu yerda ko'p sonli ko'llar va botqoqliklarning hosil bo'lgan. Bu yer neolit davri jamoalari – kaltaminorliklar tomonidan o'zlashtirilgan[4,C.79–80]. Oqchadaryo o'zanida keyingi davrlarda ham suvning mo'l bo'lishi bu hududda ibtidoiy qabilalarning kelib joylashishiga sabab bo'lgan. Oqchadaryo o'zanining shimoliy havzasida mil.avv. II ming yillikning birinchi yarmidan suv kamaya boshlagan. Bu davrga oid manzilgohlar kam aniqlangan. Janubiy Oqchadaryo havzasining suvi bo'lgan. M.A.Itina mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi I ming yillik boshlarida Oqchadaryo o'zani atroflarida aholi zich yashaganligini aniqlagan[5,C.52]. Tozabog'yob va Suvyorgan madaniyatini yaratgan qabilalar istiqomat qilgan. Mil.avv. I ming yillikdan boshlab Oqchadaryoda suv kelishi kamaya boshlagan, shimoliy Oqchadaryo bo'ylarida umuman suv bormasdan qolgan. Amudaryoning janubiy Oqchadaryo o'zani bo'ylarida mil.avv. X–VIII asrlarda Amirobod madaniyati aholisi yashagan. Mil.avv. VIII–VII asrlarda janubiy Oqchadaryo o'zanida suvning kamaya borishi amirobodliklarning o'z turmush tarzini o'zgartirishlariga sabab bo'lgan[10,C.109-112.]. Antik davrga kelib esa, bu o'zan qurib qolgan[9,C.91–92].

NATIJALAR. Janubiy Oqchadaryo o'zanidan Amirobod, Kaltaminor, Suvyorgan, Jonbosqal'a, Qirqqiz, Yakkaparson, qadimgi Gavxore, Toshxirmon kabi yirik kanallar, ko'plab o'rta va kichik ariqlar chiqazilib, dehqonchilik qilingan. Arxaik davrda Kaltaminor, Jonbosqal'a, Yakkaparson, qadimgi Gavxore, Toshxirmon, kushonlar davrida Qirqqiz, Yakkaparson kanallari

qurilgan. Arxaik davrda bunyod etilgan bu kanallarning faoliyati o'rta asrlargacha davom etgan[1,B. 106].

Quyi Amudaryo havzasining chap qirg'og'idan Sariqamishbo'yi o'zani chiqqan. Bu o'zan Xorazm vohasi, Qoraqumdan shimolda, Ustyurt va Sariqamish botig'ining janubi va sharqidagi keng hududlarni egallaydi.

Sariqamishbo'yi o'zani hududlari pasttekisliklardan iborat bo'lib, u janub va g'arb tomonda Qoraqum sahrosi bilan chegaralangan. Qoraqum sahrosi janubda Qopetdog'gacha, g'arbda Kaspiy dengizigacha bo'lgan keng hududni egallagan. Amudaryoning chap tomonidagi dehqonchilik vohasi hududi shimolda Ustyurt bilan, g'arbda Sariqamish bilan, janubda Qoraqum bilan chegaralangan. Amudaryoning chap qirg'og'i Sariqamish botig'iga nisbatan 40 metr balanlikda joylashgan[2,C.146.]. Bu dehqonchilik hududining umumiy maydoni 1 mln gektarga yaqin. Bu yerda Amudaryoning Qanxadaryo, Tunidaryo, Dovdon, Daryoliq (Qo'xnadaryo) kabi ko'hna irmoqlari oqib o'tadi[3]. Dovdon va Daryoliq eng yirik irmog'i hisoblanadi. Dovdon hozirgi Xorazm viloyatining Xonqa va Yangi Urganch oralig'idan, Daryoliq esa, Yangi Urganchdan 15–18 km shimolroqda Amudaryodan ajralib chiqqan. Ular bir-biriga nisbatan 20–30 kilometr masofada parallel ravishda g'arbgacha tomon oqadi.

Amudaryoning chap qirg'og'idagi pasttekisliklarda atrofdagi joylardan 20–40 metr va undan ham balandroq ko'tarilib turgan Butentov, Manqir, Tuzqir, Tarimqoya, Qang'xaqir, Zangibobo, Toyqir, Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Qubaton va boshqa yassi tog' qirlari bor.

XULOSA. So'nggi paleolit davrida Amudaryo suvining juda katta qismi Sariqamish va uning atroflaridagi katta-kichik botiqlarni suv bilan to'ldirgan va g'arb tomonga qarab oqqan. Bu davrda Sariqamishga ko'p suv olib kelgan Dovdon tarmog'i bo'lgan. Dovdonning suv oqimi Unguzorti Qoraqumi va tepaliklar orasidan o'tib, Ustyurtning janubiy-g'arbiy tomonidan Kaspiy dengizining sharqiy ko'rfazi hududlariga borgan. Shu suv yo'li orqali Amudaryo Kaspiy dengizi bilan bog'langan. Bu hozirgi kunda Amudaryoning Uzbo'y o'zani bo'lib, uning uzunligi 550 kilometr bo'lgan[8,C.21].

Mil.avv. IV–II ming yilliklarda ham Uzbo'yda suv bo'lgan. Amudaryo suvining asosiy qismi Sariqamishbo'yi o'zanidan oqqan. Shu davrlarda bu hudud kaltaminorliklar tomonidan o'zlashtirilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida neolit davriga oid tosh qurollari topilgan. Mil.avv. II ming yillikning boshlarida Uzbo'yda suv bo'lmagan[6,C.22]. Mil.avv. I ming yillikning boshlaridan Sariqamishbo'yi o'zani yana suv bilan ta'minlana boshlagan. Mil.avv. VII asr boshlarida Sariqamishbo'yi o'zanida suvning ko'p bo'lishi natijasida ko'plab chorvador qabilalarning shu yerga kelib joylashishiga sabab bo'lgan. Yozma manbalarda shu davrlarda Uzbo'ydan Kaspiy dengiziga kemalar qatnaganligi yozib qoldirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv.VIII-mil. IV asrlar). –Toshkent. Innovatsiya-ziyo. 2020. – B. 106.
2. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – С. 146.
3. Андрианов В.Б. Древние оросительные системы. – С.146;
4. Итина М.А. К истории изучения бронзового века Южного Приаралья // Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998. – С. 79–80.
5. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры (работы 1956 гг.) // МХЭ. Вып.1. – М., 1959. – С. 52.
6. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры. // МХЭ. – Москва. 1959. Вып. 1. – С. 52 – 69; Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999. – С. 22.
7. Низовья Аму-дарьи. – С. 17.
8. Низовья Аму-дарьи. – С. 21.
9. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – С. 91–92.
10. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. -С. 115; Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре.//Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. — Москва: 1991. – С.109-112.